

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XORIJIY TILLAR FAKULTETI
NEMIS TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

MIRZAYEVA MAFTUNA JO'RAYEVNANING

“5220100-Filologiya va tillarni o`qitish” ta'lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun

“CHET TILI DARSLARIDA INNONATSION TA'LIM
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH”
mavzusida yozgan

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: D. Muqimova

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Xorijiy tillar fakulteti
dekani _____ v.b. A. Aliqulov
“ _____ ” _____ 2015 yil

Qarshi – 2015

Mundarija

Kirish.....

I bob. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari va uning ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni.....

1.1. Ta'limda innovatsion jarayonlarning o'ziga xosligi.....

1.2. Innovatsion pedagogik texnologiya tushunchalari.....

1.3. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash tarixi.....

1.4. O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish.....

II bob. Shet tili fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....

2.1 Chet tili fanlarining ta'lim samaradorligini oshirishda foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizning ta'lim sohasidagi innovatsion islohotlari tizimida bo'lajak pedagog shaxsini shakllantirishning asosi bo'lgan kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish muammosi alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish o'quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini o'stirish, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalardan keng va samarali foydalanishnigina emas, balki, mazkur jarayonni rejalashtiruvchisi, amalga oshiruvchisi va boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchining kasbiy saviyasi, kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalasiga chuqurroq yondashuvni talab etadi. Shu sababli mustaqillik sharoitida ta'lim-tarbiya, malakali mutaxassislar tayyorlash, shuningdek, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimiga qo'yilayotgan talablarning soni har qachongidan ortib bormoqda.

Bugun O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning, bilimdon, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Bu o'rinda inson ruhiyati qonunlarini o'rganuvchi ta'lim-tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Insonni jamiyatimiz uchun to'laqonli, faol, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, samaradorligini yanada oshirishda pedagogika ilmi va uning amaliyotda to'g'ri yo'nalishga ega bo'lishi juda muhimdir. Respublikamiz Prezidenti Oliy Majlisning XIV-sessiyasida **"yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni nazorat ostiga olish zarur"**ligini alohida ta'kidladilar. Bugun olimlar va o'qituvchilar ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga astoydil

kirishishlari shart va ular bu ishga mas'uldirlar. Bu sohaga yaqin xorijiy davlatlarda ham e'tibor kuchaytirilmoqda.

Respublikamizdagi oliy (o'rta maxsus, kasb-hunar, maktab) ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarni malaka oshirish kurslarida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish davr talabidir. Bugun pedagogik texnologiya alohida fan sifatida pedagogika oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'quv rejasiga ham kiritildi.

Hozirgi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi innovatsion pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni xislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish **kafolatini** beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli o'tishining 80-foizi ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega:

- birinchi galda o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan;
- o'qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan va faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Kelajakda ta'lim taraqqiyotining haqqoniy dvigateli sifatida o'qituvchi faoliyatini yangilashga, ta'lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, talaba yoshlarda hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Darhaqiqat, istiqbol yillarida mamlakatimiz ta'lim tizimida uzoqni ko'zlab olib borilayotgan islohotlar zahirida barkamol avlod, malakali mutaxassislarni shakllantirish va bu jarayonda fan va texnikaning ilg'or yutuqlari-innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etish masalasi qanchalik muhim ekani barchamizga ayon bo'ldi.

Chet tili fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni keng joriy qilish orqali yetuk mutaxassisni tayyorlash ham bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bunday olib qaraganda bugungi pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimiga zamonaviy yondoshuvni shakllantirish, bo'lajak mutaxassis shaxsidagi ijodkorlik, tadqiqotchilik, mustaqillik va innovatsion o'qitish texnologiyalarini bilish faolligi, ko'nikmalarini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan umumkasbiy fanlarning muhim vazifalaridan sanaladi.

Tadqiqotning maqsadi: Chet tili darslarida innovatsion texnologiyalarini qo'llash orqali mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari. Mamlakatimizda Oliy ta'lim sohalarida chet tili fanlarida innovatsion faoliyatni to'g'ri tashkil etib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berish:

- Chet tili fanida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni aniqlash;
- Chet tili darslarida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarining o'ziga xosliklarini ochib berish
- Chet tili fanini o'qitish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash;
- Chet tilini o'qitishda ta'limning fanga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish tajribasini bayon etish.

Tadqiqot obyekti. Ishning obyekti bo'lib, chet tili fanidan innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars.

Tadqiqot predmeti. Chet tili darslarida innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish jarayonining mazmuni, shakli, metodlari.

Malakaviy ishining metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning ta'lim-tarbiya

sohasiga, milliy g'oya va milliy mafkuraga oid asarlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar.

Tadqiqot ishidagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar. Oliy ta'limda chet tilini o'qitish bo'yicha innovatsion texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan bo'lib, bunda ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning o'рни, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish masalalari ko'rsatilgan

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy-tahliliy xulosa hamda tavsiyalaridan o'qituvchi darslarni innovatsion texnologiyalar asosida samarali tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot mavzusining tarkibiy tuzilishi. Malakani himoya qilish ishi kirish, ikki bob, 6 ta kichik bo'lim, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

Ishning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Mavzuning birinchi bobida *"Innovatsion pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari va uning ta'lim-tarbiya tizimidagi o'рни"* deb nomlanib bunda , ta'limda innovatsion jarayonlarning o'ziga xosligi, innovatsion pedagogik texnologiya tushunchalari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash tarixi, o'quvchining innovatsion faoliyati shakllantirish yoritilgan.

Ikkinchi bob *"Chet tili fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish"*da, chet tili fanlarining ta'lim samaradorligini oshirishda foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar, chet tili fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari yoritib berilgan.

Xulosa va ilovalarda mavzu yuzasidan umumiy fikrlar jamlangan.

I bob. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari va uning ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni

1.1. Ta'limda innovatsion jarayonlarning o'ziga xosligi

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G'arbiy Yevropa va AQShda paydo bo'lgan. Dastlab innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.V. Kuzmina, V.A. Slatenin, A.I. Sherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.

X. Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N. Gross, M. Mayez, A. Xeyvlok, D. Chen, R. Yedem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning "hayoti va faoliyati" uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan. Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovatik olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan.

Axborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta'lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e'tibor yanada kuchaytirildi.

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta'lim jarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin.

1. Ta'lim tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi misolida ko'rishimiz mumkin. Bu ta'lim tizimini tubdan islox qilishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi.

2. O'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'lim mazmunida, o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin.

- ta'lim mazmuniga innovatsiya an'anaviy, noan'anaviy va masofaviy o'qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi.

- o'qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko'ramiz. Aktiv metodni qo'llash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izoxlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (o'qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi.

- dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda virtual dars shakllari misolida ko'rishimiz mumkin.

- o'qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta'lim, evristik ta'lim, darajalangan ta'lim, integratsiyalangan ta'lim, interfaol ta'lim, informal ta'lim, rasmiy ta'lim, norasmiy ta'lim turlari bilan izoxlanadi.

- o'qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izoxlaymiz.

O'qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko'rishimiz mumkin;

1. Aktiv metod. Bu metod talaba-yoshlarni dars jarayonida faollashuviga, ma'lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-muloxaza yuritishga undaydi.

2. Passiv metod. Bu metod dars jarayonida talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo'lishiga olib keladi.

3. Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o'qituvchi va talabalarni birgalikdagi faol hatti-harakatlariga asoslanadi.

Dars shaklida innovatsiya qo'yidagi shakilda ko'rishimiz mumkin;

- a) Standart dars –dars ichidagi struktura o‘zgarmaydi.
- b) Nostandart dars –dars ichidagi struktura o‘zgaradi.
- v) Vertual dars - yani masofadan o‘qitish.

Innovatsion iborasiga bir qancha pedagog olimlar o‘zlarining turli hil fikrlarini aytib o‘tishgan. Jumladan, pedagogika sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi.

Tadqiqotchilar A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G. Krug-likov, A.S. Axiyezer, N.P. Stepanov va boshqalar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o‘rganishning ikki yondashuvini ajratadilar:

- yangilik-ning individual mikrosathi
- alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o‘zaro ta’siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g‘oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta’siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o‘rnini ikkinchisi egallashi tushuniladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoning sxemasi beriladi va u quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g‘oya tug‘ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya’ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqich-da yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasining qisqartirish bosqichi.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A. Slastenin, M.M. Levina, M.Y. Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;
- ko'p subyektli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonpar-varlashtirish;
- individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro muno-sabatlari) yondashuv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning subyekti o'qituvchi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi .

1.2. Innovatsion pedagogik texnologiya tushunchalari.

Keyingi yillarda matbuotda, ilmiy adabiyotlarda, ko‘plab anjuman va yig‘ilishlarda, shu bilan birga rasmiy hujjatlarda „Yangi pedagogik texnologiya“, „Ilg‘or pedagogik texnologiya“, „O‘qitish texnologiyasi“, „Ta‘lim texnologiyasi“, „An‘anaviy pedagogik texnologiya“, „Noan‘anaviy pedagogik texnologiya“, „Innovatsion (yangi yo‘nalishdagi, tashqaridan yangi kiritilgan, yangiga o‘xshash, noan‘anaviy) pedagogik texnologiyalar“ kabi tushunchalar uchrab turibdi. Aslida mazkur tushunchalarning negizi, ya’ni „pedagogik texnika“ tushunchasi XX asrning 30-yillarida paydo bo‘lgan bo‘lib, o‘sha davrdan to bugungi kungacha mazkur yo‘nalishda ko‘pgina olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Demak, pedagogik texnologiya tushunchasi bugungi kunda pedagogik adabiyotlarda tez-tez qo‘llanilmoqda, shu bois unga bo‘lgan fikr mulohazalar, munosabat va ta’riflar ham mazkur sohada ilmiy izlanish olib borgan olimlarning yo‘nalishlari, qarashlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo‘lmoqda. Quyida ularning ayrimlaridan namuna keltiramiz:

”Pedagogik texnologiya — ta’limni sistemalashtirish yoki sinfda o‘qitishni sistemalashtirish g‘oyalarini pedagogikaga tadbiq etishdan iborat” (T.Sokomoto);

“Pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan barcha shaxs, instrumental va metodik vositalarning sistemalashgan majmui va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi” (M.V. Klarin);

Pedagogik texnologiya – o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lgan holda pedagogik muvoffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.P.Bespalko).

Pedagogik texnologiya - bu o‘qitishga o‘ziga xos yangicha (innovatsion) yon-dashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy muhandislik tafakkurining ifoda-lanishi. Texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko‘chirilgan tasviri, ta’lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L.Farberman).

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishishdan iborat bo'lib, uni tadbiq etishni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini ilgaridan loyihalashtirishda namoyon bo'ladi (U.Nishonaliyev).

Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgi-langani shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir (N. Saydahmedov)

Keltirilganlarning umumlashmasi sifatida YUNESKO quyidagi ta'rifni beradi: „Pedagogik texnologiya — ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifalarini o'z oldiga qo'ygan texnik va inson imkoniyatlarini va ularning o'zaro bog'likliklarini hisobga olgan holda o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashlarning tizimiy usullaridir”.

Bizning nazarimizda, pedagogik texnologiya – ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchining pedagogik va o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini uyg'un ravishda tashkil etish, mazkur faoliyatni faollashtirish maqsadida, samarali o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimlar majmuasidir.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ta'limga tizimiy yondashuv boshqa yondashuvlardan farqli o'laroq pedagogik texnologiyaning xususiyatlarini belgilaydi. O'qitish maqsadlarini aniq belgalash, o'qitish jarayonini loyihalash, pedagogik muvaffaqiyatlarni kafolatlash, o'zaro bog'lik va o'zaro ta'sir etuvchi bloklar pedagogik texnologiyaning muhim belgi va xususiyatlari hisoblanadi.

Umuman, “Pedagogik texnologiya” tushunchasi nimani anglatadi? Texnologiya tushunchasi yunoncha “**texnos**” — “hunar”, “**logos**” — „fan” so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, “hunar fani” degan ma'noni anglatadi.

Texnologiya –biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi (Izohli lug'at).

“Texnologiya” - subyekt tomonidan obyektga ko‘rsatilgan ta’sir natijasida subyektda sifat o‘zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo‘naltirilgan maksadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni kuzda tutadi.

Innovatsiya– (ingliz tilidan olingan “Innovation” yangilik kiritish)- tizim ichki tuzilishni o‘zgartirish amaliyot va nazariyaning yaxshi qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o‘z ichiga oladi (ilmiy g‘oyalar va ularning texnologiyalarni amaliyotga kiritish).

Innovatika- Yangilikni yaratish qonuniyatlarni o‘zlashtirish va targ‘ibotini o‘rganadigan fan.

Innovatsion jarayon- Yangilikning kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimini yangi sharoitlarga ko‘rsatkichlarga muvaffaqiyatli o‘tishni ta’minlovchi o‘zgarishlar. Innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amaliyotga kiritish jarayoni.

Innovatsion faoliyat – Yangi ijtimoiy talablar bilan a’nanaviy meyorlarning mos kelmasligi. Amaliyotning yangilanayotgan meyorlarning mavjud meyorlar bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.(V.I.Slobotikov).

Innovatsion muhit- Bu pedagogik jamoada, umuman ta’lim muassasida shunday ijodiy, samimiy do‘stona sharoit tug‘dirdiki, unda o‘qituvchi o‘zini erkin xis qiladi. Jamoada ichki intilish moddiy ma’naviy qiziqish yuqori darajada bo‘ladi. U muhitda o‘qituvchi ijodiy fikr yuritishga, intilishga tayyor bo‘ladi.

Innovatsiya – ma’lum bir faoliyatda shakl, metodlar, muammolarni yechishdagi yangicha yondashuv, yangi texnologiyalarni ta’lim jarayoniga qo‘llash orqali yuqori natijalarni ta’minlash. Bir so‘z bilan aytganda, jarayonga konseptual yondashuv.

Novatsiya -Agar islohat faoliyatining shakli, mazmuni va ko‘lami qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit xususiyatga ega bo‘lmasa, u o‘z oldiga muayyan mavjud tuzimda faqat ba’zi elementlarni o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u xolda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz.

Novator – Yangilikni qabul qilish va uni amalga oshirishga tayyor shaxs. O‘z shaxsiy pedagogik amaliyotida doimiy yangilik izlaydi, o‘zlashtiradi, qo‘llaydi.

Ishni yaxshilash maqsadida tavakkal shaklda ish ko‘radi.

Innovatsion pedagogik reja – Yaratilgan, tasdiqlangan innovatsion o‘quv-tarbiyaviy loyiha.

Innovatsion pedagogik g‘oya- Tizimlashtirilgan pedagogik g‘oyalar, o‘quv jarayonini bashorat etuvchi ma’lumotlar.

Innovatsion ta’lim –

1.Ta’lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar.

2.Yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni.

Innovatsion texnologiya – Pedagogik taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy faoliyat jarayoni. (faollik, didaktik, o‘yinlar, evristik, kreativ, muommali, modullashgan algoritmash, loyihali Akt-texnologiyalar).

Innovatsion ta’lim maqsadlari- Yangi tizimdagi ta’lim muassalari akademik litseylar,kollejlar maktabgacha ta’lim maskanlari, ixtisoslashtirilgan sinf maktablar, yangi sohaga moslashgan yoki tashkil etilgan oliy o‘quv yurtlari.

Pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘ziga xos bo‘lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijgimoiy-muxandislik tafakkurining ifodasi, o‘qitish, tarbiyalash jarayonini ma’lum darajada standartlash demakdir.

Bugungi kunda Respublikamizda ham pedagogik texnologiyalar sohasida olimlarimiz tomonidan juda katta ishlar amalga oshirildi. Ular texnologiyalashtirishni obyektiv jarayon, deb hisoblaydilar va yangi sifatiy muammolarni yechish uchun ta'limni evolyusion jarayonga ko'tarish shartlaridan biri ekanligini e'tirof etgan qolda ijod qilmoqdalar. Ularga J.G'.Yo'ldoshev, B.P.Farberman, N.Saydaxmedov, F.Jumabayev, A.Ochilov, L.Golish, B.Ziyamuxamedov, SH.Abdullayev, xususan biologiya ta'limi sohasida J.O.Tolipova, A.T.G'ofurovlarning olib boryotgan ishlari diqqatga sazovordir.

1.3. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash tarixi

Ta'lim-tarbiya jarayoniga, jumladan, o'qitishga texnologik yondashuvning vujudga kelishi va rivojlanishi o'z tarixiga ega. Ta'lim maskanlarimiz tarixidan, olimlarimizning tadqiqotlaridan shu narsa ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoniga mazkur yondashuvning rivojini shartli quyidagi ravishda 3 bosqichga ajratib o'rganish mumkin:


- birinchi bosqichda o'qitish jarayonini faqat o'qituvchigina olib borgan, insoniyat to'plagan tajribalar, bilimlar o'quvchiga o'qituvchi orqaligina berilgan.

- ikkinchi bosqichda darslik va qo'llanmalar chop etila boshlandi. O'qituvchiga yordam beruvchi didaktik materiallar vujudga keldi.

- uchinchi bosqichda esa, o'qitish texnologiyasi mazmun jihatdan yanada boyidi: o'qituvchi va o'quvchi uchun texnik vositalar, o'rgatuvchi mashinalar ham qo'shildi, dasturlangan ta'lim tushunchasi paydo bo'ldi. Ta'lim samaradorligini ko'tarishga ko'maklashuvchi yangi yondoshuvlar yuzaga kela boshladi.

Ta'lim samaradorligini yuqori darajaga ko'tarish muammosiga texnologik yondashuv o'tgan XX asrning 30-yillarida paydo bo'ldi (1-chizma). Bu davrda "pedagogik texnika" tushunchasi maxsus adabiyotlarda ko'rinib qoldi va unga o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi.

Pedagogik texnologiyalar rivojlanish tarixining bosqichlari



XX asrning 40- va 50-yillar boshlarida o‘quv jarayoniga o‘qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa, kino, radio, nazorat vositalari, ulardan *foydalanish* metodikasi pedagogik texnologiyalarga tenglashtirildi.

50-yillar o‘rtasida jahon pedagogikasida o‘quv jarayonini o‘ziga xos “texnologik” usulda tashkil etish harakati vujudga keldi. 60- yillarda esa, o‘qitish metodlarining o‘ta turli-tumanligidan ulardan samarali foydalanishda qiyinchiliklar tug‘ila boshladi va bu metodlar uchun umumiy bo‘lgan ilmiy asos yaratish zaruriyati vujudga keldi. Natijada pedagogik metodlar texnologiyasi, o‘qitish texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari vujudga kela boshladi. Ta’lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar tuzildi, maxsus jurnallar nashr etildi (1-jadval).

1-jadval

**Ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar va ilmiy
jurnallar**

№	Mamlakatlar	Jurnal nomi	Nashr etilgan yili	Tashkilot nomi	Tashkil topgan yil
1	AQSH	«Ta'lim texnologiyasi» «Educational Technology»	1961	Ta'lim Kommunikatsiyasi Assosatsiyasi	1971
2	Angliya	«Ta'lim texnologiyasi va dasturli ta'lim»	1964	Аглияда педагогик технология Миллий Кенгаши (National council for Educational Technology)	1967
3	Yaponiya	«Ta'lim texnologiyasi», «Ta'lim texnologiyasi sohasidagi tadqiqotlar»	1965 1965	4 nomda ilmiy jamiyatlar faoliyat olib bormoqda	1965-70
4	Italiya	«Ta'lim texnologiyasi»	1971	Ta'lim Kommunikatsiyasi Assosatsiyasi	1971

YUNESKO 1971 yildan to hozirgi kungacha ta'lim bo'yicha xalqaro byuroning "Pedagogik texnologiyalar" byulletenini chiqarib kelmoqda. Rossiya Federatsiyasi esa, 1997 yildan boshlab „Maktab texnologiyalari" jurnalini chop etib kelmokda.

70-80-yillarga kelib, o'quv jihozlarining turli xillarini va o'qitishning predmetli vositalarini loyihalash va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zaruriy shartlardan biriga aylandi. Ularsiz ilg'or metodika va o'qitish shakllari samarasiz bo'lishi, ta'lim sifatini ta'minlash mumkin emasligi aniq bo'lib qoldi. Bu zaruriyat 90-yillarga kelib, pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy jihatlarini tizimli tadqiq qilishni taqozo etdi. Xususan, rossiyalik olimlar bu yo'nalishda bir kator asarlarni nashr qildilar. Jumladan, 1989 yilda nashr qilingan V.M. Klarinning „Pedagogicheskaya texnologiya v protsesse", V.P.Bespalkoning „Slagayemxe pedagogicheskoy texnologii" kitoblari bu sohadagi yirik tadqiqotlarning naxijasi hisoblanadi.

Prezident Farmoni bilan 1992 yil mart oyida qabul qilingan qarorga muvofiq respublikamiz Oliy o'quv yurtlariga abiturentlarni test yordamida tanlab olish va ta'lim tizimiga pedagogik testlarni joriy etishga birinchi bo'lib asos solindi. Pedagogik texnologiya muammolari bilan maxsus tadqiqotlar o'tkazishga kirishildi. Pedagogik texnologiyaning mohiyati, uning ta'rifi va ma'lum pedagogik ta'lim doirasidagi o'rni birinchi bor 1993 yilda „Xalq ta'limi" jurnalida N. Saidahmedov tomonidan talqin kilindi. (N. Saidahmedov, O'qituvchining pedagogik tizimidagi faoliyati, „Xalq ta'limi", 1993 y, 6-7b.). Hozirgi kunda Respublikamizda bu borada ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. «Ta'lim texnologiyalari» jurnali nashr etilmoqda. Shuningdek, «Halq ta'limi», «Pedagogik te'lim», «Tarbiya» va shu kabi ko'plab ilmiy-uslubiy jurnallarda pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish borasidagi ilmiy maqolalar chop etilmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha bir qator olimlar samarali izlanishlar olib

bormoqdalar. Bulardan J.G'.Yo'ldoshev, R.X.Jo'rayev, U.N.Nishonaliyev, M.S.Saidahmedov, B.L.Farberman, Q.Ishmatov, X.Abdukarimov, K.Zaripov, T.Nazarovalarning tadqiqot ishlarini alohida ta'kiddash lozim. O'zbekistonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda Rsspublikada pedagogik texnologiyalarning nazariy, amaliy asoslarini, ularning mukammalligini o'rganish va o'quv-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan tadbirlar, deb qaralyapti. Bir guruh mutaxassislarimiz pedagogik texnologiyalar davr talabi, shu bilan birga yangi zamonaviy yo'nalish ekanligini etirof etib, ta'lim-tarbiya jarayoniga milliy xususiyatlarni kiritgan holda qo'llashni tavsiya etayotgan bo'lsalar, ikkinchi guruh mutaxassislar ta'lim-tarbiyadagi inqirozdan kutulish va ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishning birdan-bir yo'li pedagogik texnologiyalarni qo'llash va uning mukammalligini yaratish yoki ularning turli sharoitlarda ham kerakli natija berishini kafolatlashni ta'minlashga erishish zarurligini ta'kidlamokdalar. Uchinchi yo'nalishdagi mutaxassislar pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyani evolyusion bosqichga ko'tarishning sharti ekanligi, uning nazariy va amaliy asoslari, konsepsiyasini, bozor munosabatlariga moslash mexanizmlarini yaratish, ta'limga siyosatning bosh yo'li sifatida karash zarurligini isbotlamokdalar. Shu bilan birga, mazkur sohada yechimini kutayotgan bir qator muammolarni ham ko'rsatib o'tish mumkin.

Demak, O'zbekistonda ham innovatsion pedagogik texnologiyani o'qitish, tarbiyalash jarayoniga tatbiq qilish bo'yicha muvaffaqiyatli ishlar olib borilmokda. Ularning nazariy va amaliy asoslarini yaratish davlat buyurtmasiga aylandi.

1.4. O'quvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish

Pedagogning o'rni va uning vazifalari, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muxim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. Mamlakatimizda «**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**»ni hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldida javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning ta'lim muassasalari oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir.

Zamonaviy ta'lim muassasalari o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi, pedagog - auditoriyadagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. Pedagog o'quvchilar uchun dars paytida, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir, ko'pchilik pedagoglar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa

o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir.

Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- meyorlarga nisbatan tanqidiy yondoshuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilish-larini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiya-larning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yara-tish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;
- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;
- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan meyorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday meyorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi

Yangilik pedagogik yangilik meyori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subyektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik meyori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va obyektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

V.A. Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- shaxsning ijodiy-motivatsion yo'nalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga intilish va boshqalar;

- kreativlik. Bu – hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;

- kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;

- o'qituvchining individual qobiliyati. Bu - ijodiy faoliyat sur'ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat'iyatlik, o'ziga ishonch; mas'uliyatlilik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o'qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi meyorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastenin):

- innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;
- ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;
- shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
- ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga shaylik;

- innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;
- innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;
- kasbiy refleksiya bo'lgan qobiliyat.

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri - o'qituvchi shaxsidir.

O'qituvchi-novator sarmahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
- yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqa-rish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

II bob. Chet tili fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish

2.1. Chet tili fanlarining ta’lim samaradorligini oshirishda foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar

Chet tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish dolzarb masala bo‘lib, darslarni qiziqarli o‘tishi uchun juda qulaydir. Chunki ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi o‘quv jarayonini faollashtirish, talabalar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va ularni mustaqil fikrlashga hamda o‘z fikrini bayon etishga o‘rgatishdir.

Bugungi kunda ta’lim texnologiyalarini tushunishning asosiy yo‘li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak.

Chet tillarini o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarini tadbiq etish bu o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mazmunni yangilash, uning asoslari borasida talabalarga chuqur nazariy bilimlar berish asosida amaliy faoliyat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Oliy o‘quv yurtlarida chet tili fanlari talabalar uchun asosiy fanlardan biri hisoblanadi.

“O‘zbek modeli”ning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da, avvalo, inson manfaatlari ustuvorligi, uning zamon talablariga mos holda ortib boradigan ehtiyoj va qiziqishlari, imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish belgilab qo‘yilgan. Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarining mantiqiy davomi sifatida Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi ham bu boradagi yana bir muhim qadamlardan deyish mumkin.

Mazkur qarordan ko'zlangan asosiy maqsad tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublari joriy etish, xorijiy tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Qolaversa, vatanimizning jahon hanjamiyatida tutgan o'rnini tobora ortib, mamlakatlar o'rtasidagi madaniy hamda iqtisodiy aloqalar rivojlanib borayotgan bir paytda yoshlarga chet tillarni puxta o'rgatish va xorijliklar bilan muloqot davomida o'ziga taalluqli masalalar, xalqimizning madaniyatli, erishayotgan yutuqlarimizni ko'rsatib erkin muhokama qila olishi, o'g'zaki yoki yozma shaklda muloqot qilishni o'rgatish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ta'kidlash zarurki, mazkur masala dunyo davlatlarida ham dolzarb vazifalardan bo'lganligi uchun ayni paytda qator mamlakatlarda bu borada e'tiborli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yevropa Kengashining "Chet tilini bilishning umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi hujjati umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlardan biridir.

Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida ham chet tillarni o'rganish bo'yicha Davlat ta'lim standartlari loyihasini ishlab chiqish jarayonida "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari talablari asoslanildi hamda dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ijobiy tajribalari va "Xorijiy tillarni bilish bo'yicha umumyevropa kompetensiyalari" tizimi chuqur o'rganib chiqildi. Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'rgatish bo'yicha ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarining ahamiyati shundaki, unda o'quvchi-yoshlarni chet tillarda erkin muloqot qila olish ko'nikmasini shakllantirish

eng muhim vazifalardan biri etib belgilangan bo'lib, bir nechta yo'nalishlarni qamrab olgan.

Eng muhim jihati Davlat ta'lim standartining loyihasi chet tilini o'rganishda kommunikativ faoliyat va shaxsga yo'naltirilgan, integrativ va kompetensiyali yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan.

Kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv ta'limning rivojlantiruvchi, funksional va kommunikativ xususiyatlarga ega bo'lib, o'qish jarayonida bilish faolligini oshirishda hamda chet tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash va faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirib quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- ta'limning barcha bosqichlarida filologik-gumanitar, ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, badiiy-estetik, texnik sohalardagi bilimlarni integratsiyalash;
- chet tili ta'limni madaniyatlararo muloqot sifatida tashkillashtirish;
- ta'lim jarayonida o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini ta'limning teng huquqli ishtirokchilarga aylantirish;
- ta'limning interfaol shakllarini joriy etish;
- yangi til ko'nikmalari va ijtimoiy-madaniy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni egallashda o'quvchi-talabalarning mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlash nazarda tutilgan.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv chet tili ta'limida nafaqat ilmiy bilimlar berish, balki ta'lim jarayonining ishtirokchilari (o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar) munosabatlarining faol shakllariga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etadi. Ushbu yondashuv o'quvchining xarakteri va rivojlanish yo'nalishini o'rganish, ularning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda, chet tillarda muloqot ko'nikmalarni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, o'quvchining rivojlanish dinamikasini uning oldingi holati bilan taqqoslash orqali amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Chet tili ta'limida integrativ yondashuv ta'lim oluvchining turli faoliyat doiralaridan shaxsiy, intellektual va kasbiy) olingan materiallardan ta'lim

jarayonida teng (proporsional) foydalangan holda til va nutq materialining teng nisbatda bo'lishi, nutq faoliyatining 4 ta turi bo'yicha nutqiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar darajasini uyg'un va o'zaro bog'liq holda shakllantirish nazarda tutilgan.

Ishlab chiqilgan standartning yana bir ijobiy tomoni unda kompetensiyali yondashuv jarayonida ta'lim oluvchilarda faoliyatlarining barcha sohalari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kompetensiya-muloqot ishtirokchilarining aniq maqsadlarga qaratilgan turli xil hatti-harakatlarni samarali bajarishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar yig'indisini ifodalaydi. Bunda ta'lim yangicha mazmun kasb etib, bilim, ko'nikma va malaka tajribani egallash jarayonining natijasi bo'lgan kasbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiyaga erishish maqsadiga yo'naltiriladi. Chet tillarni o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida o'qitishning muayyan talablarini hisobga olgan holda, asosan, "Kasbga yo'naltirilgan chet tillar" yo'nalishidan foydalaniladi.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasi-“O'rganilayotgan chet tilida so'zlashuvchilar bilan o'zga tilda muloqat qilish qobiliyati va tayyorgarligini shakllantirishni, shuningdek, o'quvchilarni tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyati bilan tanishishni, muloqot jarayonida o'z mamlakati madaniyatini namoyon eta olishni nazarda tutadi. Chet tili o'quv fanini o'rganishning asosiy vazifalari o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi:

Lingvistik kompetensiya o'rganilayotgan til egalari bilan muloqoy qilish uchun til haqidagi ma'lumotlarni (fonetika, leksika, grammatikani) yetarli darajada bilish va nutq faoliyati turlarini (tinglab –tushunish, gapirish, o'qish va yozish) egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy –lingvistik (nutqiy) kompetensiya so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi.

Diskursiv kompetensiya (diskurs – bu o'g'zaki va yozma matn) matnni to'g'ri talqin qilish va tuzish, shuningdek, shunga mos nutqiy muloqot turini tanlash uchun og'zaki va yozma matnlarning lingvistik, stilistik hamda tarkibiy xususiyatlarini bilib oishni nazarda tutadi.

Strategik (kompensator) kompetensiya chet tili muhitida nutqiy hamda ijtimoiy muloqot tajribasidagi muammolarni ayrim verbal hamda noverbal vositalar yordamida to'ldirish, kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Ijtimoiy –madaniy kompetensiya autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko'zda tutadi.

Ijtimoiy kompetensiya hozirgi ko'pmadaniyatli dunyoda ta'lim oluvchilarda chet tilini o'rganish muhimligi tushunchasi; chet tilidan muloqot qilish, anglash, o'z ustida mustaqil ishlash, fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalashga qaratilgan.

O'quv-anglash kompetensiyasi ta'lim oluvchining chet tillarni o'rganish jarayonida mustaqil bilim olish faoliyatidagi kompetensiyalar yig'indisi bo'lib, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan mantiqiy, metodologik, o'quv faoliyati elementlarini o'z ichiga oladi.

Hozirda darslarda eng ko'p qo'llaniladigan o'qitishning interfaol usullari quyidagicha:

1. Topshiriq, mashqni bajarishga doir metodlar:

Nemis tili grammatikasiga oid biror-biror qoidani o'qituvchi o'quvchilarga tanishtirib bo'lganidan keyin, uni mustahkamlash maqsadida turli xil topshiriqlar beradi. Ular yozma yoki og'zaki shaklda bo'lishi mumkin.

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

Og'zaki:Savollarga to'g'ri javobni tanlang.Darak gapni so'roq gap bilan o'zgartiring.Mantiqsiz gapni tuzating va to'g'ri` javobni ayting.Yozma:Berilgan so'zlar ishtirokida grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzing.Berilgan gapni to'ldirish uchun grammatik jihatdan mos keluvchi so'zni tanlang.

So'zlar vositasida o'yinlar nomi.

“So'zni takrorda va qo'sh” —→ Bu o'yin ma'lum bir mavzu asosida o'tkaziladi.Masalan:”Meine Familie”,”Meine Schule”,”Meine Stadt” Ushbu mavzuga oid bir so'zni o'quvchilardan biri nemis tilida aytadi va boshqa o'quvchi ushbu so'zni takrorlaydi va yana bir so'z qo'shadi.

O'yinni davom ettira olgan o'quvchi g'olib bo'ladi.

“So'zni yozishni bil” —→ O'quvchi biror-bir so'zning o'zbekcha tarjimasini aytadi va o'quvchilardan biri uni doskaga nemis tilida yozadi.So'zni to'g'ri yozgan o'quvchi o'yinni davom ettiradi.

“So'zni top” —→ O'quvchilardan biri sifatida tashqariga chiqariladi.O'quvchilar esa biror so'zni o'ylashadi.Masalan: Ein Buch

O'quvchi kirib kelib,o'quvchilarga savol bilan murojaat qiladi.Ist das ein Buch?Javob to'g'ri bo'lsa,o'quvchilar Ja,dast ist es,javob noto'g'ri bo'lsa Nein dast is kein Buch, deb javob beradi. O'yin bola so'zni topgunga qadar davom etadi.

Bu xil metodlarda “Topshiriq”,”O'yla esla ayt”,”Javobni top”,O'yin-topshiriq”,”Sayohat”kabi mashq,topshiriqlar bajariladi.

2.Ijodiy fikrlash,hozirjavoblikni shakllantiruvchi usullar.

Nemis tili darsida so'zlar vositasida turli o'yinlar tashki qilinadi.Maqsad o'quvchilarning so'z boyligini boyitish hamda fikrlash doirasini yanada kengaytirish.

Bunday o'yinlar qisqa vaqtga mo'ljallangan bo'lib,o'quvchilarni guruh bo'lib mashq qilishga odatlantiradi.Bunday usullarga nemis tiliga oid tashkiliy o'yinlar,”Rasmi test kartochkalari”,”Mavzuga mos krossvordlar yechish”,”Quvnoq musobaqa” va boshqalarni kiritish mumkin.

Dars jarayonida o'yinlarning muntazam ravishda qo'llanilishi nemis tili fanini o'rgatishni elementlar bosqichdan murakkabiga qadar bo'lgan yo'lni sezilarli darajada osonlashtirib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga chorlaydi.

3.O'ylash,fikrlash,ijro etishga doir interfaol usullar. B

Rasmlarga qarab mustaqil hikoya tuzish va so'zlab berish.Bunda o'quvchiga hikoya tuzish uchun quyidagi yo'l-yo'riqlar beriladi:

Mustaqil matn tuzish:Hikoya mavzusiga oid so'z va iboralarni tanlash,ya'ni so'zlarni o'rganish.Hikoyaga mustaqil ravishda reja tuzish va reja asosida hikoya yozish.

Dastlab matn ustida ishlashni boshlaganda,uning barcha bosqichlarida o'quvchilarga amaliy yordam beriladi.Bunda o'quvchilar diqqatini matnning yoki hikoyaning g'oyasiga qaratish mumkin.Bu bosqichda,o'quvchilarni nemis tilida so'z yasash usullari,so'zlarni qanday so'z turkumlariga mansubligi hamda leksiyaga oid bilimlarini ham mustahkamlab borishlari maqsadga muvofiqdir.Keyingi bosqichda esa o'quvchilar mustaqil reja tuzishadi va shu reja asosida hikoya yoki matn yozishadi.

4.O'zaro musobaqa,fikrlarni bayon etish va tushuntirishga doir usullar.

Bunday usullarga "Anjuman","Musobaqa","Tanlov","Sinov","Yuzma-yuz" kabilarni kiritish mumkin.

Masalan,"Sinov" usulini qo'llashda o'quvchilarga test kartochkalari tarqatiladi.Ushbu kartochkalar faqat o'rganilgan mavzuga oid bo'lib,unda testlar oddiydan murakkabga qarab tuzilishi lozim.

Bunday testlar orqali o'quvchilarning erkin fikrlash qobiliyati o'sib,ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

Interfaol usullarning ta'limiy xususiyatlari quyidagilarga bo'linadi.Bunda interfaol usullar ta'limda subyekt-obyekt faoliyatini ifodalaydi.

1.O'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish:sinf o'quvchilari kichik guruhlariga bo'linib,guruhlararo muloqot,bahs-munozara orqali ta'lim beriladi.

2. Interfaol usullarning ta'lim oluvchilarga yo'naltirilganlik xususiyati, ya'ni shaxsga yondashuvchanligidir. Interfaol usulning bu xususiyati o'quvchilarning yakka tartibda, guruh shaklidagi o'zaro hamkorligini ifodalaydi. Bunday faoliyatda o'quvchilarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi.

3. Izlanish, ijodiy faoliyat ko'rsatish, o'zaro hamkorlikni ta'minlashga doir xususiyatlari. Bunda o'quvchilar yakka va guruh shaklida ijodiy izlanib, izlanish natijalarini tahlil qiladilar. Bu esa darsda o'quvchining faolligini oshiradi, izlanish, o'ylab topish, uning to'g'riligini o'zaro mulohaza bilan isbotlashga intilishni shakllantiradi.

4. Shaxs sifatlarini shakllantirish xususiyati. Interfaol usullar o'quvchilarni bilishga qiziqtirish, shu bilan birga bilimga intilishini, topqirligini oshirib boradi. Bu esa, o'quvchining intellektual faolligini, o'quv harakati sifatini, aqliy izlanishini takomillashtirishga yordam beradi.

5. Interfaol usullar o'quvchining odobli, tartibli bo'lishi, har bir fikrni o'ylab, dalil-isbotlar asosida ifodalashga o'rgatadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchi mavzuning o'quvchiga to'la tushunarli bo'lishini ta'minlash uchun dars jarayonida interfaol usullar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'lim samaradorligining yanada oshishiga katta hissa qo'shadi.

Grammatik o'yinlardan namunalar va ularning bolalar nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati

Tilni o'zlashtirish jarayoni bolalar uchun zerikarli bir mashg'ulot tariqasida emas, balki uni o'ziga jalb etuvchi o'yinlar mazmuniga singdirilgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bolalar nutqini o'stirish va, ayniqsa, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni o'yinlar paytida muloqotga jalb qilish ham bolalar nutqidagi grammatik nuqsonlarni bartaraf etishga, ham yon-atrofdagilardan ortda qolayotganligini his etmasdan, tabiiy ravishda o'zbek tilini o'zlashtirishlariga zamin yaratadi.

Odatda, bolalar fe'l zamonlari, otlardagi kelishik, birlik va ko'plik shakllarini noo'rin qo'llab, narsa-buyumlarning zamon va makondagi munosabtlarini to'g'ri va aniq ifodalay olmaydilar. Nutqida bunday nuqsoni bor bolalar logoped, hech bo'lmaganda, ota-onasining, yoki o'zidan kattalarning ko'magiga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj, shunchaki, pand-nasihat yoki dakki tariqasida amalga oshirilsa, u nafaqat bolalarning nutqiy faoliyatiga, balki ularning ruhiy olamiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlanganlari inobatga olgan holda, nutqi rivojlanayotgan hamda nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarning nutqiy imkoniyatlarini o'stirish faoliyatida amaliy qo'llanma bo'la oladigan qator grammatik unsurli o'yinlar ishlab chiqildi. Tavsiya qilinayotgan o'yinlar mazmunan harakatchan va didaktik o'yinlar bo'lib, ular bolalar o'zlashtirayotgan grammatik materialni oson va mustahkam egallashiga yordam beradi, bolalarni jismonan chiniqtiradi, ruhan tetiklashtiradi.

O'yinli topshiriqlar, o'z navbatida, rang-barang bo'lib, bular: koptok ishtirokidagi "O'rdakar va ovchilar" singari harakatli va "Qo'g'irchoqqa yordam ber!", "Qanday so'zni eslading?", "Do'konda", "Qo'g'irchog'ingni kiyintirishga yordam ber!", "O'yinchoqlarni topib, ularning joylashgan joyini aytib berish" kabi sujetli o'yinlardir.

Mazkur grammatikali o'yinlar bolalar uchun zavqli bo'lsa-da, mohiyatan ular grammatik maqsadga yo'naltirilgan, shu bois, ularning davomiyligi chegaralangan bo'lishi, bolalar o'yindan bezib qolmasligi lozim. Eng muhimi, o'yin jarayonida, bolalar ko'proq rag'batlantirilib turilishi va o'zlarining yutuqlaridan ilhomlanishi lozim.

O'qituvchi ta'limning asosiy vazifalarini amalga oshirish, ta'lim samaradorligiga erishish va talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish hamda boshqarishi uchun ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usullarini bilishi lozim.

Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelayotgan va didaktikada ishlab chiqilgan pedagogik

texnologiyalar shaxsga yo'naltirilganligiga, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarilishiga, shaxsga bo'lgan munosabatiga, hozirgi zamon ta'lim tizimida hukmronlik qilayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirishga qaratilganligiga ko'ra tasniflanadi.

Chet tili darslarida ta'lim texnologiyalarini qo'llashning muhim talablaridan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini majburan qo'llash orqali maqsadga erishib bo'lmaydi. Aksincha, tajribali mutaxassislar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Didaktikada ishlab chiqilgan va chet tili darslarida foydalaniladigan har qanday texnologiya talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, lekin quyidagi texnologiyalarda mazkur masala asosiy g'oyani egallaydi: didaktik o'yin, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyihalash texnologiyalari va interfaol metodlar. Chet tili darslarida ko'proq muammoli ta'lim, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyihalash texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalaniladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli ta'lim deb, o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng muqobil varianti yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini

qondirish maqsadiga yo'naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirishi va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini orttirish, ko'nikmalarni malaka darajasiga yetkazish maqsadida qo'llanilib, unda o'quvchi o'quv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintezlaydi, ma'lumotlarni umumlashtirib, yangi axborot oladi. Boshqacha aytganda, avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llab, bilimlarni chuqurlashtiradi, kengaytiradi.

Modulli ta'lim texnologiyasi. Modulli ta'lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so'zdan olingan bo'lib, qism (blok) degan ma'noni bildiradi.

Chet tilini o'qitishda modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Shu o'quv topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o'tkaziladi va xulosa chiqariladi.

Modulli ta'limning asosiy mohiyati, o'quvchilar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashiga asoslangan o'quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar.

DMM - Didaktik maqsadlar majmuasi chet tili o'quv fani yoki bobni o'rganishda ko'zda tutilgan maqsad bo'lsa, MDM – modul dasturining didaktik maqsadi - bu bir dars davomida erishilishi lozim bo'lgan maksad, XDM - xususiy didaktik maqsad bu - modul dasturidan o'rin olgan modullarni o'rganishdan ko'zlangan maqsadlar deb tushunmoq kerak.

Modul dasturlari mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivoj-lan-tiruv-chi maqsadidan kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilarning dars davomida bajaradigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar, modul dasturini yakunlash qismini o'zida mujassam-lash-ti-ra-di.

Loyihalash texnologiyasi. Loyihalash texnologiyasi jahon pedagogikasida yangilik hisoblanmaydi, chunki, u 1920 yillarda amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyu va uning shogirdi V.X. Kilpatrik tomonidan ishlab chiqilgan loyihalash metodi asosida vujudga kelgan.

Hozirgi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Belgiya, Isroil, Finlandiya, Germaniya, Rossiya, Italiya, Braziliya va Niderlandiya kabi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda.

Dj. Dyu o'qitishni o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olgan holda o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini faollashtirish orqali tashkil etishni taklif etgan. Buning uchun o'quvchilarga o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga qo'llash, ulardan kelgusi hayotda foydalanish yo'llarini ko'rsatish, ya'ni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda o'qitish lozimligini uqtirgan. Bu jarayonda o'quvchilar tanish vaziyatdagi ahamiyatga molik muammo-larni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalarini amaliyotga qo'llab hal etish orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar.

Loyihalash texnologiyasining asosiy g'oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyat-ga molik bo'lgan muammoni hal etish jarayonida ko'zlangan natijaga erishishdir. Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo'lsa, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo'lsa, amaliyotga qo'llash masalasi bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma'lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish sanaladi.

Loyihalash texnologiyasining asosiy tezi: “O‘rganilayotgan bilim, ko‘nikmalar menga nima uchun zarurligi va undan qayerda va qay tarzda foydalanishni bilaman” sanaladi. Bu tezis o‘quvchilarning fan asoslarini ongli o‘zlashtirishlari, hayotga moslashishlari va mo‘ljalni to‘g‘ri olishla-ri-ga yordam beradi.

Hozirgi kunga kelib qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quv va ijodiy faollikni oshiruvchi hamda ta’lim – tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi ta’lim texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interaktiv metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar, boshqa usullardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo‘llash rag‘batlantiriladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, yuqorida aytib o‘tilgan metodlardan foydalangan holda geografiya ta’limida darslarni tashkil etilsa, talabalarning ilm olishlari, o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha bilimlarini yanada oshirishlari, bugungi kunga kelib ko‘lami tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozini bartaraf eta oladigan, mustaqil fikrga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar yetishib chiqadi.

Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyoti, axborot muhitining kengligi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanish sur’ati – ta’lim tizimiga davr talabi nuqtai nazaridan yangicha qarashni, uni jamiyat talablari va shaxs ehtiyojini hisobga olgan holda jahon standartlari darajasiga ko‘tarish, ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishni taqazo etmoqda.

Bundan ko‘rinib turibdiki, kelgusi taraqqiyotimizning asosi ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligiga bog‘liq. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so‘zlari ibratlidir:- “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda,

xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizning mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim-tarbiya ishini uyg'un holda olib borishimizni talab etadi”.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimi uchun dastlabki pog'ona bo'lgan umumiy o'rta ta'lim tizimi, ayniqsa, chet tili ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosi dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur muammoni hal qilish uchun esa, bo'lajak chet tili fani o'qituvchilariga ta'limida samarali metod va vositalar, xususan, pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish yo'llarini o'rgatmog'imiz darkor. Mazkur muammoni hal qilish uchun esa Oliy ta'lim dars mashg'ulotlarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish lozim.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak pedagoglar, xususan, chet tili o'qituvchilariga berilayotgan Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan keng qo'llanilmoqda.

Chelt tili darslarida o'qitishni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va unda amaliy topshiriqlarni turli usullar yordamida berib borish orqali ko'zlangan maqsad samaradorligiga erishish bilan birgalikda o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularda o'z-o'zini nazorat qilish va to'g'ri baholashni shakllantiradi.

Chet tili o'qituvchisi tomonidan baholash haqida so'z borganda pedagogik texnologiyadan foydalanib tashkil etilgan darsda hech bir talaba amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida «qoniqarsiz» baho olmaydi. Agar o'quvchi

noto'g'ri javob bersa, o'qituvchi va o'quvchilar yordamida qaytadan to'g'ri javob berishga harakat qiladi. Natijada o'quvchida o'qituvchiga va fanga bo'lgan salbiy munosabat yuzaga kelmaydi. Aksincha teran va aniq fikrlashga, o'z xatosini to'g'rilashga harakat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. "Aqliy hujum" metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim.

“Aqliy hujum metodi”



Dars jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda quyidagi qoidalariga amal qilish talab etiladi:

- 1.O'quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishiga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.
- 2.Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag'batlantirilishinavbatdagi- yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baxolashga yo'l qo'yilmaydi. Ularning fikrlari baholanib borilsa, o'quvchilar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

“Klaster”metodi

Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster”metodi aniq obektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga hizmat qiladi.

Stil va Stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster”metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Insert” strategiyasi

Strategiyasi o'zlashtirilishi ko'zda turilgan yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan taxliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyani qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

Kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi; har bir guruhdan o'zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid ikkita fikr bildirish so'raladi; o'quvchilar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadilar; bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi; so'ngra o'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlariga tarqatadi; guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o'zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o'xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi); guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi; guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi; liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar; guruhlarining yondashuvlari umumlashtirib, yakuniy xulosa chiqariladi.

Insert – samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizmi

(V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot

(-) – men bilgan narsaga zid

(-) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur

№	Die Fragen	Ich weiß (-)	Ich habe eine hnung (+)
		Ich weiß cht (-)	Ich habe keine hnung (-)
1	Was legt die erfassung der epublik Usbekistan est?		
2	Sind die Ursachen der uftverschmutzung die andstürme?		
3	Verkompliziert der ustrocknende Aralsee ie Situation?		
4	Was bedroht die uftverschmutzung und as wirkt sich aus?		
5	In welchen Regionen Usbekistan ist die uft stark belastet?		
6	Wo gibt es eine hohe uftverschmutzung?		

“Bilaman.Bilishni xohlayman.Bilib oldim”metodi

Ushbu metod o'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlarni beradi. Metodi qo'llash jarayonida o'quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh

tomonidan bajarilgan faoliyat taxlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

1) har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari bo'yicha umumlashtiriladi;

2) guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya'ni:

1. O'quvchilarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2. O'quvchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarni boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi.

3. O'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiradilar.

Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning to'liq tafsiloti quyidagicha:

Sinf o'quvchilari guruhlariga biriktiriladilar; o'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi; o'quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyiha 1-bandiga yozib boriladi; o'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi; o'quvchilarning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyiha 2-bandiga yozib qo'yiladi; o'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni xabardor qiladi; o'quvchilar o'zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi; bayon etilgan yangi tushunchalar loyiha 3-bandiga yozib qo'yiladi; mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi.

WWA (Ich weiß, ich weiß nicht, ich habe keine Ahnung)

BBB usulida talabalar bilimini baholash

№	Die Fragen	Ich weiß (-)	Ich habe eine Ahnung (-)
		Ich weiß nicht (-)	Ich habe keine Ahnung (-)
1	Wann bekam Usbekistan wieder die Möglichkeit, seine Außenpolitik zu erfolgen?		
2	Wann verlief die objektive Lösung der aktuell wichtigsten innen- und außen- politischen Aufgaben Usbekistan?		
3	Wann begann Prozeß des neuen Formierungssystems der internationalen Beziehungen?		
4	Womit ist die Weltgemeinschaft zusammengestoßen?		
5	Welche Beziehungen hat Usbekistan mit vielen Ländern geknüpft?		

6	Wieviel Staaten haben Usbekistan als souveräner und unabhängiger Staat anerkannt?		
---	---	--	--

O'yin texnologiyalari ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi.

O'yin jarayonida namoyon bo'luvchi psixologik xususiyatlar har bir o'quvchiga shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta olish imkonini beradi, ularning ijtimoiy hayotda egallagan o'rnini barqarorlashtiradi, ularda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi.

O'yin texnologiyalari nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliy ko'nikmalarining malakalarga aylanishini ta'minlabgina qolmasdan, o'quvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

XULOSA

O'zbekistonda mustaqillik tantanasi tufayli ta'lim-tarbiya tizimida tub o'zgarishlar yuz berdi. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar tizimida ta'lim olayotgan yoshlarning dunyosini boyitish ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash ta'lim va tarbiya jarayonida takomillashtirish, shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Inson o'z milliy urf-odatlarini, ma'daniyatini o'rganishi lozim, chunki aqliy faoliyat inson ma'daniyati kamolatining yetakchi komponentlaridan hisoblanadi.

Milliy urf-odatlari har qanday xalq ma'naviyati, ma'naviy hayotining muhimini tashkil etuvchi qismidir¹.

Shunday qilib, o'z milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz va madaniyatimiz tilimizni qadrlagan holda inson boshqa chet tillarni o'rganishga harakat qiladi, chunki til o'rganish orqali imkoniyatlarimiz kengayadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda, bunday bo'lishiga sabablardan biri shu kungacha ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish esa, ularni mustaqil tanqidiy fikrlashga, kerakli narsalarni izlab topishga, tahlil va xulosa qilishga o'rgatadi. O'quvchi bu jarayonda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi, ta'lim o'quvchi-talabalarga yo'naltiriladi. Innovatsiya – inglizcha innovation yangilik kiritish, yangilik ma'nosini bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'quvchi va talaba faoliyatiga yangilik kiritish bo'lib, uni amalga, oshirishga asosiy interaktiv metodlardan to'liq foydalanish imkoniyati mavjud. Interaktiv metodlar bu talaba bilan talaba, talaba va internet, talaba va o'quvchi o'rtasidagi fikrlash demakdir, ya'ni pedagogik tasir etish usullaridir va ta'lim tizimining asosiy qismi

¹ Karimov I. O'zbekistonda buyuk kelajak sari 1999.

hisoblanadi. Bu metodlarni qo'llashda pedagogik va o'quvchi-talabalar birgalikda faoliyat kursatishlari kerak bo'ladi. Oliy o'quv yurtlarida zamon talabiga mos malakali kasb egalarini yetishtirishda zamonaviy o'qitish metodlari, ya'ni pedagogik texnologiyalar, inovatsion texnologiyalar muhim va pedagogning mahorati o'quvchi-talabalarni jahon standartlari darajasidagi malakali kasb egalari bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Chet tillarni o'rgatishda hozirgi zamon axborot va pedagogik texnologiyalarni ahamiyati katta. Til o'rgatish jarayonida mavjud bir qancha texnologiyalarni qo'llash mumkin. Bular "Tarmoqlar" metodi. (klast), "Bumerang", "Loyiha", "3x4", "Blis-o'yin", "Aqliy hujum", "Axborot uzatish" shular jumlasidandir. Bu texnologiyalardan birini qo'llash o'qituvchi ixtiyorida, chunki maqsad aniq ya'ni bu o'quvchi-talabalar bilim saviyasini oshirishda, yaxshi natijaga erishishdir. O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayoni oldindan loyihalashtiriladi, bunda o'qituvchi o'quv predmetning o'ziga xos tomonini joy sharoitini o'quvchining imkoniyati hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, chunki bular yaxshi natijaga erishishga yordam beradi. Dars jarayonida o'tilayotgan mavzuni yangi texnologiya asosida o'tishdan oldin o'qituvchi tanlangan texnologiyaning texnologik xaritasini tuzib olishi katta texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, o'quvchi talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday xaritani tuzmoqchi bo'lgan o'qituvchi pedagogika, psixologiya, metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi kerak.

Pedagog jamiyatdagi kishilar bilan doimo muloqotda bo'lar ekan, barkamol insonlarni yetishtirib berishdek muhim vazifa yuklatilgan ekan, u o'z kasbiga xos ko'nikma va malakalarni, tashkilotchilik, gnostik malakalarni, ijodiy xislatlarni, uddaburonlik sifatlarini yanada shakllantirish borasida doimo o'z bilimlarini rivojlantirib borishi muhimdir.

Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning yo'nalishlaridan biri – o'quvchilar shaxsini, shaxsiy fazilatlarini, qiziqishlari va xulq-atvorini puxta

o'rgangan holda ularga pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bugungi kunda bu borada ta'lim-tarbiya muassasalarining innovatsion pedagogik texnologiyalar va tarbiyachilariga dolzarb vazifalar qo'yilmoqda.

Yuqorida bildirilgan fikr mulohazalardan shunday xulosalarga kelish mumkinki:

1. Chet tili fanining ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

2. Chet tili fanlarini yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jihatdan o'zgarishini ta'minlaydi.

3. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish xolatining sifat ko'rsatkichiga ega bo'lishiga olib keladi.

4. Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyatlari hamda ularning samarasi ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuviga olib keladi.

Agar o'qituvchilarni innovatsion faoliyatda ish olib borishni yo'lga qo'ysak:

- O'qituvchilarni yangilikka intiluvchanligi, ularni izlab topishga, ta'limda qo'llashga, ko'nikma, malakasi shakllanib boradi;
- Uzluksiz o'z ustida ishlash ko'nikmasi shakllanadi;

- Innovatsiya, ilg'or pedagogik texnologiya, interfaol muhitda ta'limni olib boradi;

- O'quvchilarni o'quv jarayoni harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi. U esa ta'limda sifat va samaradorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston" 1995.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent «Ma'naviyat» 2008 y.
4. Karimov. I.A. Donishmand xalqimning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi 2000 yil.
5. Karimov.I.A. "Ma'naviy yuksalish yo'lida" Toshkent. "O'zbekiston" 1998 y.
6. Karimov. I. A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T., «O'zbekiston» 1999 y.
7. Jalolov J. "Chet tili o'qitish metodikasi", Toshkent "O'qituvchi nashriyoti" 1996 y.
8. Tomson A.I. "Об изучении иностранных языков в средне-учебных заведениях" Педагогический сборник СПб. 1891.
9. Mirollyubov A.A., Rahmonov M.V., Seltin V.S. "O'rta maktablarda chet til o'qitishning umumiy metodikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1974 y.
10. Zaripova R.A. "Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma", Toshkent "O'qituvchi" 1986 y.
11. Shatilov S.F. "Методика обучения немецкому языку в средней школе", Л. Просвещение 1977.
12. "Pedagogik fanlari o'qitishning mazmuni va metodi". Ilmiy tekshirish Instituti. "O'rta maktablarda chet tili o'qitish kursi" Professor Setlin V.S. tahriri ostida. Toshkent "O'qituvchi" 1978 y.

13. Jabborov V. “Talabalarning chet tilidan mustaqil ishlari”, Toshkent “O’qituvchi” 1984 y.
14. Rahmatova D. “Istiqlol va til ilmiy amaliy anjuman materiallari” Toshkent 2007 y. 3-qism 209-211 betlar.
15. G’afforova T. “Qarshi Davlat Universiteti axborotnomasi” 2-son 2009 y.
16. Saidahmedov N. “Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati” “Xalq ta’limi jurnali” 1999 y. 1-son.
17. Farberman B.L. “Ilg’or pedagogik texnologiyalar” Toshkent O’zRFA 2000 y.
18. G’afforova T. va boshqalar “Ta’limning ilg’or texnologiyalari” Qarshi “Nasaf” 2003 y.
19. Eshmuhammedov R.J. “Innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari” Toshkent 2004 y.
21. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A. Kasb ta’limi o’qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik qo’llanma. 2006.
22. Yo’ldoshev J.G. . “Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish”, “Ma’orif” gazeta № 85, 1995 yil, 27 oktabr, 1-3 betlar.
23. Yo’ldoshev J.G. «Yangi pedagogik texnologiyalar» (yo’nalishlari, muammolari, yechimlari) – «Boshl. ta’lim», 1999 yil, № 6, 2-5 betlar.
24. Qosimov, A.X Xoliqova F. “Pedagogik maxorat va Pedagogik texnologiyalar” Toshkent, TATU 2004 yil.
25. Golish L.V. «Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish» Ekspress qo’llanma T. TESIS, 2001 yil.-59 bet.
26. www.tdpu.uz
27. www.pedagog.uz

